

XIZMAT KO'RSATISH VA SERVIS SOHASINING MAKROIKTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Boyzoqova Dilbar Fayzievna
Jizzax Politexnika Instituti

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish va servis sohasining makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rni bayon etilgan. Aholining bandligini ta‘minlash, daromadini ko‘paytirish va farovonligini yuksaltirishda xizmat ko‘rsatish sohasining roli hamda ahamiyatini ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish, makro iqtisodiyot, bandlik, daromad.*

PLACE OF SERVICE IN ENSURING MACROECONOMIC STABILITY

Baizakova Dilbar Fayzievna

Senior Lecturer at the Department of Economics and Management

Jizzakh Polytechnic Institute

Abstraction: *This article describes the place of the service sector in ensuring macroeconomic stability, the importance and relevance of this sphere.*

Keywords: *Service sector, macroeconomics, employment, income of the population.*

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va bozor islohotlarini chuqurlashtirish jihatidan xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘shishning muhim omiliga aylanmoqda. Xizmatlarni rivojlantirishni faollashtirishga tadbirkorlik tashabbuslarini yanada kengaytirish, yangi istiqbolli servis turlarini tezkor rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan Xizmat va servis sohasini rivojlantirish dasturining qabul qilinishi va amalga oshirilishi muhim tayanch bo‘ldi.

Xizmat va servis sohasining o‘shish sur‘atlarini oshirish hisobiga iqtisodiyotning nisbatan istiqbolli va tez rivojlanuvchi tarmog‘iga aylandi. Avval asosan davlat tomonidan taqdim etiluvchi xizmatlarni hozirda iste‘mol talabiga qaratilgan xususiy sektor korxonalari ko‘rsatadi. Natijada, YaIMdagi

xizmatlar ulushi 2020 yildagi 33,5 foizdan 2021 yilda 38,6 foizga oshdi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasining tezkor rivoji va bu sohada qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish uchun sharoitlar yaratilayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

2021 yil yakunlari bo'yicha xizmat ko'rsatishning o'sish sur'atlari 138,6 foizni tashkil etib, xizmat ko'rsatish sohasining YaIMdagi ulushi muntazam ortmokda. Tarmoqning tarkibiy tuzilmasida o'zgarishlar kuzatilmokda, jumladan, transport xizmatlari, savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari o'zni mustahkamlanmokda.

2021-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2021 yilda xizmatlar ko'rsatish hajmi qariyb 20 foizga o'sdi.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 2022 yilda 1,5 baravarga oshirish hamda qo'shimcha 1,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari mavjud.

Yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda xizmat ko'rsatish va servis sohasining alohida o'zni bor. Bu sohada yangi ish o'rinlarini kam xarajat bilan va qisqa muddatda tashkil etish mumkin. Chunki mamlakatimizda bu tarmoqni rivojlantirish imkoni katta bo'lib, u ortiqcha mablag' talab etmaydi.

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tez rivojlanuvchi tarmoqlari bo'lib, u O'zbekiston iqtisodiyotini taraqqiyotini belgilovchi yangi yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Xizmatlarning xilma-xil yangi turlari kengayib, xizmatlar bozorida salmoqli o'rinni egallab borayotgan bank-moliya, turizm, sug'urta, axborot-kommunikatsiya xizmatlari va boshqalarni rivojlantirish hisobiga yangi ish o'rinlari barpo etilmoqda.

Mamlakatimizda xizmatlarning yuqori texnologiyalarga asoslangan va bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan turlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, avvalambor, qishlok joylarda ko'rsatilaётgan xizmatlarning turini kengaytirish hamda sifatini

яxshilash va buning asnosida mamlakatimiz iqtisodiётini barqaror va jadal rivojlantirishda, aholining bandligini ta'minlash, daromadini ko'paytirish va farovonligini юksaltirishda xizmat ko'rsatish sohasining roli hamda ahamiyatini oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi maqsadli parametrlarining belgilangan muddatlarda sifatli hamda to'lik hajmda amalga oshirilishi юzasidan shaxsiy javobgarlik tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari, korxonalar va tashqilotlarning xabarlarini zimmasiga юklangan.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning xududiy dasturlari va ularni amalga oshirish bo'yicha kompleks choralar-tadbirlarni ishlab chiqishda esa quyidagilarga alohida ahamiyat berilgan:

- xizmat ko'rsatish sohasi tarkibini яnada takomillashtirish, aholi o'rtasida talab katta bo'lgan zamonaviy xizmat turlari bilan bozorni jadal rivojlantirish va to'ldirish;
- shahar va qishloq aholi punktlari xududlarining qurilishini rejalashtirishda, tasdiklangan me'orlardan kelib chiqqan holda, mintaqalar aholisiga turli ijtimoiy va kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- birinchi navbatda qishloq aholi punktlarida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasiga oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari hamda ixtisoslashgan kasb-xunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasidan ёshlarni keng jalb ёtish.

Iqtisodiётni modernizatsiyalash sharoitida aholi daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini яxshilashning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohasini qo'llab quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani яnada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va milliy iqtisodiётning jadal rivojlanishi ko'p jihatdan ushbu muammoni hal ёtilishiga bog'liqdir. Shu sababli bugungi kunda

respublikamizda aholini ish bilan ta'minlash va uning farovonligini oshirish masalasiga ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining o'sib borishi - ichki bozorni sifatli va raqobatbardosh tovarlar bilan to'ldirishning zamonaviy talablarini hisobga olgan holda, xizmat ko'rsatish sohasi kengayishining jahon bozori talablariga mos eksport tarkibi ko'payishining, yangi ish o'rinlari yaratishning, avvalo, eshlarni ish bilan ta'minlashning va shu asosda aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz - iqtisodiyatimizda olib bora'etgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir. -T.: «O'zbekiston», 2016. 19-bet

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" - PQ 104-son Qarori. 27.01.2022 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" - PQ 5113-son Qarori. 11.05.2021 yil.

4. Manba: Stat.uz.2021.